



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

RYESPUBLIKAMIZDA YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARMA'MURCHILIGI (SOLIQ NAZORATI) TA'MINLANISHINI TAKOMILASHTIRISH MASALALARI

Shuxrat Jumayev

TDIU Mustaqil tadqiqotchi

Annotations

Mazkur maqolada respublikamizdagi yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilib, korporativ boshqaruv usullari joriy etilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar soni kun sayin ko'paymoqda. Bu iqtisodiyotimiz jadal sur'atlarda rivojlanishi, sanoat salohiyati oshishi, yuqori texnologiyali tarmoqlarning o'zlashtirilishi, boshqacha aytganda, mamlakatimiz raqobatdoshligi ta'minlanishiga iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar bo'yicha soliq salohiyatini hisoblash formulalari keltirilgan shuningdek soliq-siyosatini takomillashtirish, byudjetda xarajatlar ehtiyojlarini va tenglashtirish dasturlarining asosiy jihatlarini aniqlashda mavjud innovation usullar va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni takomillashtirish, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashning keng ko'lamli usullarini qo'llash, davlat byudjetlari uchun integrasiyalashgan axborot muhitini yaratish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'yektlari, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish:

Davlat byudjeti tuzumidan va taraqqiyot darajasidan qat'iy nazar, davlat funksiyalarini bajarish uchun byudjet daromadlarining lozim darajada shakllantirish har bir davlat uchun zarur hisoblanadi. Jahonda aksariyat mamlakatlarda soliq tizimi soliq to'lovchilarining muayn qatlamiga (moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hajmiga muvofiq) e'tibor qaratish yo'li bilan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga haraqtat qilmoqdalar. Yirik soliq to'lovchilarni alohida rejimda nazorat tizimning yaratilishi byudjet-soliq qonunchiligiga qat'iy rioya etilishiga va soliq ma'muriyatchiligi samaradorligining oshishiga olib keladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yirik soliq to‘lovchilar faoliyati bo‘yicha 2020 yil davomida 2 082 ta holatda o‘tkazilgan kameral soliq tekshirishlari natijasida 7 919,9 mlrd.so‘m qo‘srimcha soliqlar hisoblanib, shundan 5 203,7 mlrd.so‘mga qayta hisobot olingan, 97,0 mlrd.so‘mga hisobotlarga tuzatishlar kiritildi va 2 618,6 mlrd.so‘mga asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etildi. Hisobotlarida kamchiliklarga yo‘l qo‘yliganligi uchun 180,6 mlrd.so‘m moliyaviy jarimalar qo‘llanilgan. Qo‘srimcha hisoblangan soliq summasining 4 329,9 mlrd.so‘mi undirildi, 914,0 mlrd.so‘m qismi ortiqcha to‘lovlar hisobidan qoplandi, 140,4 mlrd.so‘mi bo‘yicha majburiy undiruv choralar ko‘rilmogda.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha:

2020 yil davomida foyda solig‘i bo‘yicha 460 holatda 2 369,0 mlrd.so‘mlik qayta hisobotlar olinib, shundan 1 764,2 mlrd.so‘mi undirildi va 521,0 mlrd.so‘mi ortiqcha to‘lovlar hisobiga qoplandi hamda 83,8 mlrd.so‘m majburiy undiruv chorasi ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi PF-5978-sod Farmoni 15-bandiga asosan, foyda solig‘ini avvalgi chorak yakunlari asosida hisoblash bo‘yicha o‘rnatilgan talablar bekor qilinib, soliq to‘lovchilar 2-chorakdan avans to‘lovlar summasi to‘g‘risida ma’lumotnomma taqdim etish huquqiga ega bo‘ldi.

Shunga ko‘ra, 67 ta korxona 2020 yil 1-choragiga nisbatan kutilayotgan foydadan hisoblanadigan foyda solig‘i bo‘yicha 952,3 mlrd.so‘mga kam taqdim etganligi aniqlanib, 20 tasidan 395,4 mlrd.so‘mga qayta hisobot va 23 tasidan 290,2 mlrd.so‘mga asoslantiruvchi hujjatlar olindi. 142 ta korxona 2020 yil III choragi uchun ma’lumotnomma taqdim etmaganligi sababli, II choragi foyda solig‘i summasidan kelib chiqqan holda shaxsiy kartochkasiga 260,1 mlrd.so‘m foyda solig‘i kiritildi. Bundan tashqari, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha tahlil amalga oshirilib, 12 ta holatda foyda solig‘i imtiyozlari noto‘g‘ri qo‘llanilganligi aniqlandi hamda 15,9 mlrd.so‘mga (byudjetga qo‘srimcha hisoblangan foyda solig‘i) qayta hisobotlar olindi.

Qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha:

2020 yilning 12 oyida qo‘silgan qiymat solig‘idan nol darajali stavka qo‘llanilishi hamda xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larni hisobga olish natijasida hosil bo‘lgan 8 905,7 mlrd.so‘m ortiqcha summalarini qaytarish bo‘yicha jami 830 ta arizalar kelib



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

tushgan bo‘lib, shundan 300 ta ariza bo‘yicha 3 985,3 mlrd.so‘mga Moliya vazirligiga ortiqcha summalarini qaytarish uchun xulosalar yuborildi. 527 ta holatda kamchiliklar aniqlanganligi sababli arizalar qayta ko‘rib chiqish uchun soliq to‘lovchiga qaytarildi. Qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar natijasida 1 446 holatda 2 141,3 mlrd.so‘mga qayta hisobotlar olinib, shundan 1 186,4 mlrd.so‘mi undirildi va 954,9 mlrd.so‘mi ortiqcha to‘lovlari hisobiga qoplandi. Xususan, korxonalar tomonidan 2019 yilda sotib olingan asosiy vositalar (ko‘chmas mulk hamda qurilishi tugallanmagan ob’yektlar bilan birgalikda) uchun to‘langan QQS qoldiq summasi 2020 yil hisobotida to‘g‘ri aks ettirilishi tahlil qilindi, 816 ta korxonada 80,2 mlrd.so‘mlik tafovut aniqlanib, 26,3 mlrd.so‘m (byudjetga qo‘sishimcha hisoblangan QQS) qo‘sishimcha hisoblanishi ta’minlandi va 53,9 mlrd.so‘m bo‘yicha asoslantiruvchi hujjatlar olindi

Resurs soliqlari bo‘yicha:

2020 yil davomida resurs soliqlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar natijasida 561 holatda 1 450,8 mlrd.so‘mlik qayta hisobotlar olinib, shundan 377,9 mlrd.so‘mi undirildi va 1 072,9 mlrd.so‘mi ortiqcha to‘lovlari hisobiga qoplandi. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha 2019 yil uchun taqdim etilgan hisob-kitob va 2020 yil uchun taqdim etilgan ma’lumotnomalar o‘rtasida 81 ta holatda 23,2 mlrd.so‘m tafovutlar aniqlandi va 3,5 mlrd.so‘m qo‘sishimcha soliq hisoblandi. To‘liq amortizasiya qilingan binolar bo‘yicha ularning 3 yilda kamida 1 marta aniqlanadigan qayta baholangan (bozor) qiymatidan mol-mulk solig‘i hisoblanishi bo‘yicha korxonalarning ma’lumoti va taqdim etilgan hisobotlari solishtirilganda, 26,1 mlrd.so‘m mol-mulk solig‘i hisoblanmay qolgani aniqlandi va 14,0 mlrd.so‘mga qayta hisobotlar olinishi, 11,8 mlrd.so‘mga soliq hisobotlariga tuzatish kiritilishi va 2,9 mlrd.so‘mga asoslantiruvchi hujjatlar olinishi ta’minlandi. Davlat kadastro tomonidan 71 ta holatda korxonalarning ko‘chmas mulki to‘g‘risidagi ma’lumoti bilan korxonalar tomonidan taqdim etilgan hisobot o‘rtasida tafovutlar mavjudligi aniqlandi hamda 5,5 mlrd.so‘mga (byudjetga qo‘sishimcha hisoblangan mulk solig‘i) qayta hisobotlar olindi. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq hisobotlarida stavkalar to‘g‘ri qo‘llanilishi va o‘rtacha sotish narxining to‘g‘riliqi tahlil qilinib, 12 ta holatda 141,1 mlrd.so‘mga qayta hisobotlar hamda 2,0 mlrd.so‘mlik asoslantiruvchi hujjatlar olindi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Aksiz solig'i bo'yicha:

Har oylik hisoblangan aksiz solig'i hisobotlari va soliq stavkalarining to'g'ri qo'llanilishi tahlil qilinganda, 164 holatda 316,7 mlrd.so'mlik qayta hisobotlar olinib, shundan 248,6 mlrd.so'mi undirildi va 68,1 mlrd.so'mi ortiqcha to'lovlar hisobiga qoplandi.

Soliq nazorati bo'limi xodimlari soni 40 tadan 60 tagacha oshirilishi natijasida, 751 ta soliq to'lovchilar soliq tekshiruvdan o'tkazilishi yoki 90 foiz soliq to'lovchining faoliyati qamrab olinishiga erishiladi.

Xususan, hisobot davrida kameral soliq tekshiruv o'tkazilishi lozim bo'lgan 836 ta soliq to'lovchining 570 tasida (68,2 foiz) 40 nafar xodimlar tomonidan nazorat tadbirlari o'tkazilib, 3 910,7 mlrd.so'm qo'shimcha manbaa aniqlangan.

2021 yilda Yirik soliq to'lovchilar faoliyati bo'yicha Kameral soliq tekshirishlari va natijalari tahliliga ko'ra:

O'tgan davrda 2177 ta holatda o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari va olingan qayta hisobotlar natijasida 10 275,7 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblanib, shundan 9 102,1 mlrd.so'mga (1856,4 mlrd.so'm 10-shakl) qayta hisobot olindi va 1173,6 mlrd.so'mga asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etildi. Hisobotlarida kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi uchun 407,9 mlrd.so'm moliyaviy jarimalar qo'llanildi. Qo'shimcha hisoblangan soliq summasidan 6 824,4 mlrd.so'mi bartaraf etildi, ya'ni 4 562,2 mlrd.so'mi undirildi, 2262,2 mlrd.so'mi ortiqcha to'lovlar hisobidan qoplandi va 2277,7 mlrd.so'mi bo'yicha majburiy undiruv choralar ko'rilmoxda. Shu jumladan, 142 ta holatda olingan qayta hisobotlar va o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari natijasida 764,1 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblanib, shundan 577,9 mlrd.so'mga qayta hisobot olindi va 186,2 mlrd.so'mga asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etildi. Hisobotlarida kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi uchun 26,8 mlrd.so'm moliyaviy jarimalar qo'llanildi. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan QQS hisobotlarida kamchiliklar aniqlanib, 965 ta korxonadan 2618,6 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olindi.

Sayyor soliq tekshirishlari va natijalari:

Soliq kodeksining 218-moddasiga asosan qo'llanilgan moliyaviy sanksiyani 10 kunlik muddatda ixtiyoriy ravishda to'lash natijasida 2,9 mlrd.so'mga kamaytirilgan. Shu jumladan, 2021 yil davomida 9 ta korxonalarda sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazildi. O'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlari natijasida 13,6 mlrd.so'mlik mahsulotlar kamomadi va kirim hujjati bo'limgan 11,4 mlrd.so'mlik mahsulotlar mavjudligi aniqlangan.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Soliq auditlari va natijalari.

O‘tgan yil davomida o‘tkazilgan 32 ta soliq auditni natijasida 540,9 mlrd.so‘m qo‘srimcha soliqlar hisoblandi va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi uchun 45,4 mlrd.so‘m moliyaviy jarima qo‘llanildi.

Qo‘srimcha hisoblangan soliqlardan 65,1 mlrd.so‘mi va qo‘llanilgan moliyaviy jarimalardan 6,6 mlrd.so‘mi undirildi. O‘tkazilgan soliq auditni natijasida summasi 10,0 mlrd.so‘mdan yuqori bo‘lgan 6 ta korxonadan 270,5 mlrd.so‘m byudjetga qo‘srimcha soliqlar hisoblandi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha:

2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘idan nol darajali stavka qo‘llanilishi hamda xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larning hisobga olish natijasida hosil bo‘lgan 16 340 mlrd.so‘m ortiqcha summalarini qaytarish bo‘yicha jami 1862 ta arizalar kelib tushgan bo‘lib, 703 tasi bo‘yicha 7 633,3 mlrd.so‘mga Moliya vazirligiga ortiqcha summalarini qaytarish uchun xulosalar yuborildi. 1113 ta holatda kamchiliklar aniqlanganligi sababli arizalar qayta ko‘rib chiqish uchun soliq to‘lovchiga qaytarildi. 2021 davomida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar natijasida 147 ta holatda 349 mlrd.so‘mga qayta hisobotlar olinib, mablag‘lar to‘liq undirildi.

Xulosa va takliflar.

Tanlangan usuldan kelib chiqib, yirik soliq to‘lovchilarning soliq potensialini baholash mohiyati bir-biridan o‘zaro farqlanadi. Mazkur tadqiqot ishining natijalariga ko‘ra, soliq potensialini hisoblashni optimallashtirish uchun soliq va statistika axborotlar bazasini takomillashtirish, soliq organlari hisobotlarini avtomatlashtirish, turli idoralar tomonidan nashr etilayotgan hisobot, ma’lumotlarni sinxronizasiyalash va tartibga solinishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. www.soliq.uz.